

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining**  
**10-sonli qarori**

**2025-yil “29” dekabr**

**Toshkent shahri**

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

**“O‘zenergosotish” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlarining 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to‘g‘risida.**

***Kun tartibidagi masala yuzasidan:***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-59-sonli farmoyishining 10-bandiga asosan 2025-yil 1-dekabr qadar 2026-yil uchun tegishli korxonalar rahbarlari faoliyatining “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari”ni (KPI) ishlab chiqib, tasdiqlash uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritish belgilangan.

Bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 22-noyabrdagi 07/25760-sonli xati bilan Farmoyishda belgilangan topshiriqni Kuzatuv kengashi majlisida ko‘rib chiqib, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining kun tartiblariga kiritish yuzasidan ko‘rsatma berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida “O‘zenergosotish” AJ boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlarining 2026-yil uchun “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari” (KPI) va “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, Kuzatuv kengashining 2025-yil 27-noyabrdagi majlisida ushbu ko‘rsatkichlarni Jamiyatning Yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJ boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlarining 2026-yil uchun “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari” (KPI) 1-ilovaga hamda “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zenergosotish” AJ boshqaruvi raisi (Obidjonov) Jamiyat boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlarining 2026-yil uchun “Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari”ning (KPI) bajarilishini Kuzatuv kengashi majlislarida muntazam ravishda ko‘rib chiqilishini ta’minlasin.

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya vaziri**  
**o‘rinbosari**

 **X. Mustafayev**